

## Jizzax Davlat Pedagogika Institutining Tashkil Topishi Tarixi

Bazarbayeva Nilufar Anarbayevna<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Jizzax viloyatida Jizzax Davlat Pedagogika Institutining tashkil etilishi va undan ko'zlangan maqsad yoshlarga bo'lган e'tibor o'z navbatida yangi ta'lim muasassalarining ko'payishi va ularni malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash masalalari ko'rsatib o'tilgan. Maqolani mazmun mohiyatini yoritishda bir qancha ilmiy adabiyotlar, maqolalardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** Jizzax, oliv ta'lim, kadrlar, fakultet, o'qituvchilar.

Ilm va ma'rifat insonlarni kamolga, jamiyatni esa taraqqiyotga yetaklaydi. Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinchi muallim" deb ulug'lanadigan Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zları, miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Buyuk ajdodlarimizning noyob va betakror ma'naviy – ilmiy merosi yoshlar uchun kerakli dasturga aylanishi shart. Bunday meros doimo kuch – quvvat va ilhom bag'ishlaydi. Ta'lim tarbiya inson hayotida eng asosiy bo'g'in hisoblanib, ta'lim tizimini jamiyat oldidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Har qanday mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy islohotlani amalga oshirish jarayonida zakovatli har tomonlama bilimli kadrlarga ehtiyoj sezadi.

Oliy ta'lim - turli oliy maktablardan yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayyorlash. Oliy ta'lim oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli soxalari bo'yicha oliy malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasb hunar ta'limini olgan kishilarga ilmiy nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalar shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Oliy ta'lim uzoq tarixga ega bo'lib sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan.

Jizzax voxasida sanoat va qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishni yanada tezroq rivojlantirish, mavjud yer-suv, tabiiy boylik zaxiralaridan samarali foydalanish, axoliga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, Jizzax cho'lini o'zlashtirishni tezlashtirish maqsadida O'zbekiston oliy kengashi Prezidumining 1973 – yil 29 dekabrdagi qaroriga muvofiq, Sirdaryo viloyatining Jizzax, Forish, Do'stlik, Zomin, Paxtakor, Mirzacho'l, Oktyabr [ Xozirgi Zafarobod ], Samarqand viloyatining Baxmal, G'allaorol tumanlari bazsida Jizzax viloyati tashkil todi.

Jiizzax cho'lining o'zlashtirishi yangi xo'jaliklar, sanoat korxonalarining ko'payishi, u yerdarda ishlaydigan axolisining o'sishiga olib keladi. Tumanlarda istiqomat qilayotgan axoli sonining o'sishi esa yangi maktablarning va maktabgacha ta'lim muassasalarning ko'payishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida malakali o'qituvchilarga bo'lgan talablarning oshib borishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari viloyatning Zomin, Forish, G'allaorol, Mirzacho'l kabi tumanlarning qishloq maktablarini malakali o'qituvchilar bilan ta'minlashni xayotning o'zi taqazo qilar edi.

Jumxuriyatning kenja Jizzax viloyatida xalq maorifi tarmog'i malakali kadrlarga bo'lgan extiyojlari yil sayin orta borishi xisobiga olinib, hukumatimiz qaroriga asosan Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Sobiq SSSR Ministrlar kengashining 1974 – yil 16 iyuldag'i,

O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy komiteti va Ministrler Kengashining 1974 – yil 8 avgust № 256 – sonli buyrug'I asosida Jizzax Davlat Pedagogika Institute tashkil topdi. Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Jizzax shahrida tashkil topgan to'ng'ich oliy o'quv yurti bo'lib, o'z ish faoliyatini o'sha yili 10 avgustdan e'tiboran boshladi.

<sup>1</sup> JDPU Ijtimoiy – gumanitar fanlari o'qitish metodikasi [Tarix] yo'nalishi II- bosqich magistranti



Yosh viloyatimiz va jumxuriyatimiz ma'naviy xayotidan katta voqeа bo'lган, bu ilm markazini tashkil etishda O'zbekiston markaziy komitetining birinchi kotibi, ikki marta Mexnat qaxramoni, Davlat va Navoiy mukofoti laureati , taniqli adib, o'zbek xalqining suyukli farzandi Sharof Rashidovning xizmati beqiyos katta ekanligini va shu bilan birga o'sha yillari Jizzax viloyati partiya qo'mitasining sarkotibi bo'lган Seyid Toirov , Mafkuraviy ishlar bo'yicha viloyat partiya qo'mitasi kotibi Sodiq Nishonov va viloyat ijroiya qo'mitasining raisi Erkaboy Islomovlar Jizzax tong'ich oliv o'quv yurtini ochishga bosh-qosh bo'lganliklarini aloxida qayd qilish joizdir.

Yangi institutining rektorligiga Samarqand davlat pedagogika institute prorekto'ri bo'lib ishlagan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Bozorboy O'rınboyev va o'quv – tarbiyaviy ishlari muovinligiga esa falsafa fanlari nomzodi, dotsen Z.Ubaydullayevlar tayinlandi.Institut uchun Jizax shahridagi hozirgi O'rda ekologik bog'ida joylashgan hududda bir va ikki qavatlari binolar qurulishi boshlanadi.Sharof Rashidov Jizzax davlat pedagogika institutining hozirgi binosiga 1982-yilda qurilish uchun poydevor o'rni qazildi.Binoning poydevori uchun ilk g'ishtni qo'yishga Sharof Rashidov taklif qilindi 1988-yildan boshlab institut jamoasi yangi o'quv binosiga ko'chib o'tadi . Yosh institut raxbariyatga juda qisqa muddat ichida o'quv xonalarini tayyorlash, kadrlarni tanlashdek ma'suliyatlari vazifa yuklatilgan edi. Institut raxbariyatining tashabbuskorligi bilan Jizzax shahar va viloyat partiya qo'mitasi, O'zbekiston Xalq Maorif vazirligining bevosita ko'rsatgan amaliy yordami tufayli institutga ajratilgan binolar qisqa muddatda o'quv korpuslari, yotoqxonalar qayta ta'mirlanib, kerakli o'quv qurollari va uskunalarini keltirilib jixozlandi.Bu ishlarni amalga oshirishda xo'jalik ishlar bo'yicha rektoro'r o'rnbosari bo'lib ishlagan [marxum] Rayim Shavaliyev ayniqsa katta jonbozlik ko'rsatadi.O'zbekiston Respublikasi Maorif vazirligining 1989-yildagi tegishli qarori asosida Jizzax davlat pedagogika institutiga o'zbek romanchilik maktabi asoschisi, atoqli adib Abdulla Qodiri nomi berilgan.

Institutda o'quv – tarbiyaviy ishlarni yaxshilashda, professor – o'qituvchilar va talabalarga yaxshi sharoit yaratib berishda oliygohda dastlabki kundanoq ish boshlagan bosh hisobchi A.Ergashev ish xaqi va stipendiya xisobchisi R.Boyop'latova xazinachi Z.Rasulova, xo'jalik xodimlari M.Xamraqulov, M.Suvonqulov, N.Sobirov, K.Po'latov, S.Qo'ysonovlar xam yaxshi xizmat qildilar.

Xisobot bo'limida ishlayotgan M.Rustamova, G.Ashirmatova, G.Quvondiqova, M.Saidova, D.Fozilova, D.Qodirova kabi xodimlar ham institutda xo'jalik ishlarini tashkil qilishda yaxshi mehnat qildilar.

Jizzax Davlat Pedagogika Institutining ikki fakulteti va uch bo'limi mavjud edi.Bular o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, pedagogika va boshlang'ich ta'lim, matematika kabi fakultetlar va bo'limlardan iborat edi.Bu dastlabki ikki fakultetda talabalarga besh mutaxassislik bo'yicha; o'rta maktablar uchun o'zbek tili va adabiyoti , yevropa va milliy tildagi maktablar uchun rus tili va adabiyot o'qituvchilar, umumiyy texnika va mexnat ta'limi, matematika, boshlang'ich sinflar uchun, o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishlari amalga oshirildi. Institutda o'quv ishlari tahkil qilinib, talabalarga har tomonlama puxta bilm berildi.Filologiya fanlar nomzodi, dotsentlar, M.To'ychiyev, A.Soliyev, O.Jo'rayev, pedagogika fanlar nomzodi N.Safarov, miditsina fanlar nomzodi T.Saydullayev, katta o'qituvchilar Toshpo'latov, S.Fayziyev, A.Nomozov, G.Qudratov, M.Tursunov, iqtisod fanlari nomzodi X.Haydarov va boshqa murabbiylar ayniqsa boshqalarga namuna bo'lib xizmat qildilar .

Insititut sirtqi bo'limi 1975-yilda tashkil topib, o'zbek tili va adabiyoti , pedagogika va boshlang'ich ta'lim uslublari fakultetlariga 120 nafar talabalar qabul qilindi .Fakultetga shu yilning o'zida X.Jo'rayev dekan qilib tayinlandi va unga ishonch bildirildi.Sirtqi bolimga katta o'qituvchilardan [marxum ]Z.X.Xo'jaahmedov dekan etib tayinlanib T.Abdullayev metodistlik vazifasida sitqidildan xizmat qildi.G'allaorol , Do'stlik , Zomin , Jizzax shaxar va tumanlarida o'quv kansultatsiya bo'limlari tashkil qilinib talabalarga yozma ish yozish intihonlarga puhta tayyorlanishlari uchun muntazam kansultatsiyalar uyushtirildi 1979-yili sirtqi bo'lim tugatilib o'rniga kunduzgi fakultetlar qoshida kechki va sirtqi bo'limlar tashkil qilinib , muntazam ravishda ish olib borildi .1985-yil sirtqi bo'lim dekanati qaytadan tashkil qilinib, X.Jo'rayev dekan qilib ishga tayinlandi.Sirtqi bo'limga bir qancha yillar N.Nosirov , U.Raxmonqulovlar sirtqi bo'lim dekanlari vazifasidan faol xizmat qildi.



Sirtqi bo'limda M.Zoirjonov , G.Sattorov N .Shodiyorovlar metodist vazifalarida ishlab o'quv jarayonini yaxshi yo'lga qo'yishda yuksak darajada xizmat qildilar.Institutga 1974-1986-yillarda filologiya fanlari doktori , professor B.O'rincev , 1986-yil iyul oyigacha pedagogika fanlari doktori , professor U.Nishonaliyev raxbarlik qildilar . 1990-yili institut rektorligiga yana professor B.O'rincev tanlovida ko'pchilikning ovozi bilan rektorlikka saylandi va 1992-yil noyabr oyigacha bu lavozimda mehnat qildi.1978-yilda institutni 249 nafar talaba bitirib chiqib diplomga ega bo'ldilar.Institutni sobiq talabalar orasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatga o'qituvchisi, xalq maorifi a'lochisi, xalq maorifining raxbar xodimlari fan nomzodlarni ko'plab uchratish mumkin. Sobiq talabalardan institut o'quvchilaridan K.Yusupov, psixologiya fanlari nomzodi Y.Alimqulov, pedagogika fanlari nomzodi Sh.Nazarov, falsafa fanlari nomzodi F.Mamatqulovlar talabalarga puxta bilim berdilar institutda o'quv-tarbiyaviy ishlarni yaxshilashda 1974-1976-yillarda rektorning o'qubtarbiyaviy ishlar muovini bo'lib ishlagan falsafa fanlari nomzodi Z.Zubaydullayev, 1976-1977 yillarda fillalogiya nomzodi dotsent M.Tuychiyev, 1977-1981 yillarda tehnika fanlari nomzodi, dotsent I.Jumayev, 1977-1987 yillarda biologiya fanlari nomzodi, dotsent E.Sulaymonov, xizmatlarini alohida qayt qilish joizdir.

2022-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“ Pedagogik ta'lif sifatini ochirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora - tadbirlar to'g'risida” gi PQ – 289 sonli qarori asosida Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Institutiga Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti maqomi berildi.

Ayni paytda universitet rektori pedagogika fanlari doktori, professor Shavkat Safarovich Sharipov. Universitet bugungi kunga kelib 13 ta fakultet 28 ta yo'nalish va 41 ta kafedraga ega.Talabalar soni 19.273 nafarni tashkil etadi . Universitetda 542 nafar professor o'qituvchilar faoliyat yuritishadi. Ta'lif muassasasida Magistratura va Sirtqi [ maxsus sirtqi ] bo'limlar bor. Magistratura bo'limida 20 ta mutaxassislik mavjud. Muassasaning to'liq nomi Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti. Qisqa nomi ; JDPU. Umumiyl maydoni 101 776 m<sup>2</sup> bo'lib, shundan 9 980m<sup>2</sup> o'quv maydoni, 9 100m<sup>2</sup> esa yotoqxona maydoni hisoblanadi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston strategiyasi,, O'zbekiston nashriyoti 2021 yil.
2. Nishonov. S , Haydarov.F , “Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti,, Jizzax, 1994 yil 3-bet.
3. Haydarov.H “Jizzax viloyati tarixi”. Toshkent “Mehnat” 1996 yil
4. Haydarov.H , Jo'rayev. O , Toshbekov.T “ Jizzax cho'lida bir Bo'ston ”. Jizzax 1980 yil
5. Xalq so'zi, Ro'znomasi. 1997 aprel soni.
6. Ziyokor ro'znomalari materiallaridan foydalanildi.
7. Institut arxivi, ikkinchi fond - uchinchi ish, 17-bet.
8. Jizzax haqiqati ro'znomasi. 1995 yil, 15-may soni.
9. WWW.JSPI.o'z.internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

